

**YURIDIK SHAXSLAR VA TADBIRKORLIK SUB'EKLTLARI UCHUN SMS-BANKING  
TIZIMIDAN iABS MA'LUMOTLAR BAZASIDAN MIJOZGA DOIR  
MA'LUMOTLARNI UNING TELEFONIGA ELEKTRON SHAKLDA UZATISH  
BO'YICHA OMMAVIY OFERTA**

ATB “**Biznesni rivojlantirish banki**” (keyingi o‘rinlarda – **Bank**) Yuridik shaxslar va tadbirkorlik sub’ektlarga sms-banking tizimidan iABS ma’lumotlar bazasidan mijozga doir ma’lumotlarni uning telefoniga elektron shaklda uzatish va masofadan xizmat ko‘rsatish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-369-moddasiga muvofiq ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda – **Oferta**) tuzishni taklif qiladi.

Bank kartasi saqllovchisi Bankning taklif etgan Ofertasini harakatlari orqali akseptlashi, u tomonidan oferta tuzishga rozi bo‘lganligini hamda uning talablarini e’tirozsiz to‘liq qabul qilganligini bildiradi.

Ofertani Bank kartasi saqllovchisi mobil aloqa vositasi orqali bankning [www.brz.uz](http://www.brz.uz) veb-saytidan PDF-shaklida yuklab olishi mumkin.

Ushbu Jamoatchilik ofertasida yuridik shaxslar va tadbirkorlik sub’ektlari uchun sms-banking tizimidan iABS ma’lumotlar bazasidan mijozga doir ma’lumotlarni uning telefoniga elektron shaklda uzatish hamda “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATBga (keyingi o‘rinlarda matn bo‘yicha – **Bank**) masofadan xizmat ko‘rsatish nazarda tutilgan. Quyida qayd etilgan Ommaviy oferta matni yuridik shaxslarga, shuningdek, “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATBda hisobvaraqlari ochilgan tadbirkorlik sub’ektlariga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 309-moddasiga muvofiq shartnomaga tuzish bo‘yicha rasmiy olingan taklif bo‘ladi.

### **1. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. Ushbu shartnomada bank va mijoz o‘rtasida SMS-banking tizimidan IABS ma’lumotlar bazasidan Mijozga doir ma’lumotlarni uning telefoniga elektron shaklda uzatish tartibini va unga doir munosabatlarni tartibga soladi.

1.2. Ushbu shartnomada quyidagi terminlar qo‘llaniladi:

SMS (short message service) – mobil telefon orqali yuboriladigan elektron shakldagi qisqa xabarlar.

SMS-banking – modem qurilmasiga ega bo‘lgan va SMS-Server dasturi bilan jihozlangan kompyuter orqali mijozlarga hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari qoldig‘i va aylanmalari to‘g‘risida ma’lumotlar olish imkonini beruvchi dasturiy-texnik kompleks.

1.3 SMS-banking tizimining to‘liq funksional imkoniyatlari ro‘yxati SMS-ma’lumot foydalanuvchisi qo‘llanmasida keltirilgan bo‘lib, u mijozga bank tomonidan ushbu shartnomani imzolanganidan keyin ilovadagi shaklda taqdim etiladi.


1.4. SMS-banking tizimi vositasida taqdim etilgan ma’lumot bankning rasmiy ma’lumotnomasi hisoblanmaydi va faqat axborot harakteriga ega.

1.5. SMS-banking tizimidan foydalanish davrida bankka jo‘natilgan so‘rovlar bo‘yicha (SMS-xabar) xarajatlar to‘lovi mijoz tomonidan shartnomani asosida amalga oshiriladi.

### **2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

#### **2.1. Bank :**

–mijoz tomonidan SMS-banking tizimidan foydalanish tartibi qoidalariga rioya qilinmaganda yoki telekommunikatsiya va aloqa tizimlarida nosozliklar yuzaga kelganda, bank SMS-banking tizimidan foydalanishni to‘xtatishga;



–zarur hollarda mijoz rozilgisiz SMS-banking tizimidan foydalanish to‘g‘risida qo‘llanmaga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritishga;

–SMS-banking tizimida texnik-profilaktik ishlar olib borilishiga zaruriyat tug‘ilganda, SMS-xabarlarning mijozga yetkazilishini vaqtincha to‘xtatib turishga;

–tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qирғин quroolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalariga” (ro‘yxat raqami 2886, 2017-yil 23-may) muvofiq mijoz hisobvaraq‘i bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turishga yoki ularni amalga oshirishni rad etishga haqli) qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

2.2. Mijoz SMS-banking tizimidan foydalanishni cheklash haqida yoki SMS-banking tizimidan foydalanish cheklovini bekor qilish haqida bankka xat orqali topshiriq berishga haqli.

### 2.3. Bank:

–Mijozga SMS-banking tizimidan doimiy foydalanish imkoniyatini yaratishga;

–Mijozdan xat orqali SMS-banking tizimidan foydalanishni cheklash yoki cheklovni bekor qilish haqidagi topshiriqnomha olingan kundan keyingi kun yakuniga qadar SMS-banking tizimidan foydalanish imkoniyatini cheklash yoki cheklovni bekor qilishga majbur.

–Mijoz yoki mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiya 2886-ga asosan yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga kiritilgan taqdirda bank ushbu mijozni tekshirishning kuchaytirilgan chora-tadbirlarini – operatsiya bo‘yicha pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkning manbalari haqidagi qo‘shimcha ma’lumotlarni olish, maqsadlarini o‘rganish, ushbu mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalar ustidan doimiy monitoring yuritish va bu haqda komplaens nazorat xizmati masul xodimiga xabar berishlari shart.

### 2.4. Mijoz :

–SMS-banking tizimidan foydalanish davrida bankka jo‘natilgan so‘rovlar bo‘yicha (SMS-xabar) harajatlari to‘lovini oldindan to‘lov shaklida o‘z hisobidan qoplashga;

–bank tarifi bo‘yicha SMS-banking xizmat uchun o‘rnatilgan tarif stavkalarini o‘z vaqtida to‘lab borishga;

–SMS-banking tizimidan foydalanish bo‘yicha bank qo‘llanmasiga rioya qilishga;

–SMS-banking tizimidan noqonuniy foydalanish xavfi paydo bo‘lganida zudlik bilan bu to‘g‘risida tizimni to‘xtatish hakida bankka xabar berishga;

–uchinchи shaxslar tomonidan SMS-banking tizimidan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslikka;

–mobil telefon soni va raqamlari o‘zgarishi, yo‘qotilishi da (o‘g‘irlanishi va boshqa shunga o‘xhash holatlar) bankni xabardor qilishga majbur.

## 3. BOSHQA SHARTLAR

3.1. SMS-banking tizimida texnik-profilaktik ishlar olib borilishiga zaruriyat tug‘ilganda, bank bu haqda mijozni oldindan xabardor qilgan holda, SMS-xabarlarning mijozga yetkazilishini vaqtincha to‘xtatib turadi. Texnik-profilaktik ishlar yakunlanib, SMS-xabarlarning mijozga yetkazilishi tiklangandan so‘ng, bank mijozga SMS-banking tizimi qayta ishga tushirilganligi va profilaktika ishlari davom etgan davr to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan SMS-xabar yuboradi. Profilaktika ishlari 1 (bir) bank kuni va undan ko‘proq vaqt davom etsa, nosozlik davri uchun mijozdan haq undirilmaydi.

3.2. SMS-banking tizimida ko‘zda tutilmagan texnik nosozlik yuzaga kelganda, bank yuzaga kelgan nosozliklarni zudlik bilan bartaraf etish choralarini ko‘radi. Nosozlik bartaraf etilib, SMS-xabarlarning mijozga yetkazilishi tiklangandan so‘ng, bank mijozga SMS-banking tizimida ro‘y bergen texnik nosozlik bartaraf etilganligi va nosozlik davom etgan davr



to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan SMS-xabar yuboradi. Texnik nosozlik 1 (bir) bank kuni va undan ko‘proq vaqt davom etsa, nosozlik davri uchun mijozdan haq undirilmaydi.

#### **4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

4.1. Mobil aloqa operatori yoki mijoz aybi tufayli mijozga o‘z vaqtida yetib bormagan SMS-xabarlar uchun bank javobgar hisoblanmaydi.

4.2. Taraflar SMS-banking tizimidan noto‘g‘ri yoki noqonuniy foydalanish bilan bog‘liq ikkinchi tarafga yetkzilgan zarar qoplab berishlari lozim.

#### **5. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

5.1. Ushbu shartnomaning bajarilishi yuzasidan kelib chiqadigan nizolar taraflarning o‘zarो kelishuvi orqali hal etiladi.

5.2. Taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda, nizolar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari asosida sud orqali hal etiladi.

#### **6. YAKUNIY QOIDALAR**

6.1. Ushbu shartnomma nomuayyan muddatga tuziladi.

6.2. Ushbu shartnomaga kiritiladigan barcha o‘zgarishlar bankning rasmiy saytida e’lon qilib boriladi hamda mijozni aloqa vositalari orqali xabardor qilib boriladi

6.3. Ushbu shartnomma onlayn oferta hisoblanib, mijoz xohlagan vaqtida tanishib yuklab olish imkonini mavjud.

